

**DRAMADA IJTIMOIIY TIP VA INDIVIDUAL XARAKTER
MUNOSABATI**
(G'afur G'ulomning "Muxbir sudi" she'riy dramasi tahlili asosida)

Norboyeva Zarina Yusuf qizi

Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada G'afur G'ulomning "Muxbir sudi" dramasi misolida dramatik asarda ijtimoiy tip va individual xarakter yaratish masalalari tahlil qilinadi. Asardagi qahramonlarning ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqasi, ularning shaxsiy fazilatlari va ruhiy olamining badiiy talqini yoritiladi. Shuningdek, muallifning satirik tasvir vositalari orqali jamiyatdagi illatlarni fosh etish mahorati ilmiy-nazariy jihatdan baholanadi. Tadqiqot natijasida drama janrida ijtimoiy tip va individual xarakter uyg'unligi badiiy konfliktning rivojlanishi hamda asarning g'oyaviy-estetik qimmatini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: drama, "Muxbir sudi", ijtimoiy tip, individual xarakter, obraz, xarakter yaratish, badiiy konflikt.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni obrazlar vositasida badiiy talqin etishdan iborat. Ayniqsa, dramatik asarlarda xarakter yaratish masalasi syujet, konflikt va sahnaviy harakat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Dramatik qahramonning ichki olami, uning dunyoqarashi, maqsad va manfaatlari bevosita dialog, monolog hamda voqealar rivoji orqali ochiladi. Shu bois drama nazariyasida ijtimoiy tip va individual xarakter kategoriyalari dramatik obraz tabiatini belgilovchi muhim nazariy tushunchalar sifatida e'tirof etiladi. Ijtimoiy tip muayyan tarixiy davr va ijtimoiy muhitga xos yetakchi belgilarni o'zida mujassamlashtirsa, individual xarakter qahramonning betakror ruhiyati, fe'l-atvori va shaxsiy fazilatlarini namoyon etadi. Ilmiy adabiyotlarda bu ikkisi quyidagicha farqlanadi: "Xarakter deyilganda muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim, xarakterli umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan obraz nazarda tutiladi. Tipik obraz deyilganda muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o'zida mujassam etgan obraz nazarda turiladi".²⁷ Yuksak badiiy mahorat namunasi bo'lgan dramatik asarlarda ushbu ikki qatlam bir-birini to'ldirib, obrazning hayotiyligi va ishonarliligini ta'minlaydi. Natijada qahramon nafaqat muayyan shaxs sifatida, balki jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar va ma'naviy muammolarning badiiy

²⁷ Quronov D. Adabiyotshunolsikka kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.



timsoli darajasiga ko'tariladi.

O'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida G'afur G'ulomning she'riy dramalari alohida o'rin tutadi. Adib o'z asarlarida jamiyat hayotidagi dolzarb muammolarni dramatik konflikt asosida yoritish bilan birga, xarakter yaratishning o'ziga xos usullarini ham namoyon etadi. "Muxbir sudi" she'riy dramasi ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda adolat va adolatsizlik, haqiqat va yolg'on, xalq manfaatlari hamda mansabparastlik o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik sud jarayoni orqali ochib beriladi. Asarda qishloq ijroqo'm raisi Tursunqul obrazi orqali mansabni shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qiluvchi rahbarning tipik qiyofasi yaratilgan bo'lsa, muxbir, dehqonlar va boshqa guvohlar orqali haqiqat va adolatni himoya qiluvchi ijtimoiy kuchlarning badiiy talqini yuzaga keladi. Ayniqsa, Tursunqulning xotini tomonidan aytilgan guvohlik dramatik konfliktni keskinlashtirib, bosh qahramon xarakterining asl mohiyatini ochishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunoslikda xarakter yaratish jarayoni odatda ijtimoiy tip va individual xarakter tushunchalari bilan izohlanadi. Ijtimoiy tip – muayyan tarixiy davr, ijtimoiy muhit yoki qatlamning eng muhim va xarakterli belgilarini o'zida mujassamlashtirgan badiiy obrazdir. Tipik obraz muallifning tasavvuridagi mavhum shaxs emas, balki real hayotda uchraydigan ko'plab kishilarga xos xususiyatlarning badiiy umumlashmasidir. Shuning uchun tipik qahramon alohida bir inson bo'lishi bilan birga, ma'lum ijtimoiy hodisaning ham badiiy timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq badiiy obraz faqat tipik belgilar yig'indisidan iborat emas. Uning san'atkorona mukammalligi individual xarakter xususiyatlari orqali ta'minlanadi. Individual xarakter qahramonning o'ziga xos fe'l-atvori, ruhiy kechinmalari, odatlari, qaror qabul qilish usuli, nutqi va voqelikka munosabatida namoyon bo'ladi. Agar tipiklashtirish obrazni ijtimoiy jihatdan umumlashтира, individuallashtirish uni hayotiy, jonli va esda qolarli shaxs darajasiga olib chiqadi. Shu sababli tipiklik va individuallik bir-biriga zid emas, balki badiiy obrazning ikki o'zaro bog'liq qatlami hisoblanadi.

Drama janrida ushbu uyg'unlik alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi dramatik asarda muallif qahramon xarakterini izohlab bermaydi; personaj o'zini o'zi ochadi. Uning har bir gapi, harakati, bahsi yoki sukuti xarakterining yangi qirrasini namoyon etadi. "Personajni jonli, o'quvchi tasavvur qila oladigan tarzda tasvirlashda uning qiyofasi–portreti, bo'y-basti, harakatlari, nigohi, ovozi, gapirishidagi o'ziga xoslik va boshqa ko'p tomonlari alohida ahamiyat kasb etadi"²⁸. Ayniqsa, konfliktning keskinlashuvi jarayonida obrazning asl mohiyati tobora yaqqolroq ko'rina boshlaydi. Shunday ekan, dramatik xarakter

²⁸ Sultonova M. Portret yaratish san'ati. Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi to'plami.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

voqealar rivojida shakllanadigan va ochiladigan dinamik hodisa sifatida talqin etiladi.

Dramatik xarakter yaratishda dialog, monolog, qarama-qarshilik, sahnaviy vaziyat va boshqa personajlarning munosabati muhim badiiy vositalar hisoblanadi. Bir obrazning tabiati ko'pincha boshqa obrazlar bilan to'qnashuvi orqali ochiladi. Natijada konflikt nafaqat voqealarni harakatga keltiruvchi omil, balki xarakterlarni sinovdan o'tkazuvchi va ularning haqiqiy mohiyatini namoyon etuvchi estetik mexanizm vazifasini ham bajaradi. G'afur G'ulomning "Muxbir sudi" she'riy dramasi ham ana shu nazariy tamoyillar asosida qurilgan asarlardan biridir. Unda personajlar faqat syujet ishtirokchilari sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy kuchlar va ma'naviy qadriyatlarning badiiy ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Asardagi har bir obrazning individual xususiyatlari dramatik konflikt davomida tobora ravshanlashib, ularning tipik mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shu jihatdan "Muxbir sudi" she'riy dramasi ijtimoiy tip va individual xarakter uyg'unligini kuzatish imkonini beradigan muhim dramatik namunadir.

Drama nazariyasida tipik obraz muayyan davr va ijtimoiy muhitning xarakterli belgilarini o'zida mujassamlashtirgan badiiy shaxs sifatida talqin qilinadi. Bunday obrazlar alohida bir insonning taqdirini emas, balki jamiyatda uchraydigan muayyan ijtimoiy hodisa yoki illatni umumlashtirib ifodalaydi. Zero Dilmurod Quronov yozganidek: "Inson xarakteri, uning ruhiy o'ziga xosligi ko'p jihatdan u yashayotgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'liqdir".²⁹ G'afur G'ulomning "Muxbir sudi" she'riy dramasidagi Tursunqul obrazi ham aynan shunday tipik xarakterlardan biridir. Muallif uni shunchaki salbiy qahramon sifatida emas, balki mansab vakolatini shaxsiy manfaatlari yo'lida suiiste'mol qiluvchi rahbarlarning badiiy timsoli darajasiga ko'taradi. Asar voqealari Tursunqul ustidan yozilgan tanqidiy maqolaning sudda ko'rilishi asosida rivojlanadi. Sud jarayonida raisga poraxo'rlik, maishatparastlik, ko'pxotinlilik, xizmat vazifasiga mas'uliyatsizlik, kambag'al xalq manfaatlariga befarqlik kabi qator ayblar qo'yiladi. Mazkur ayblar birgina shaxsning nuqsonlarini emas, balki jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy illatlarni ifodalaydi. Shu jihatdan Tursunqul obrazi individual shaxs chegarasidan chiqib, muayyan ijtimoiy qatlamning tipik vakiliga aylanadi.

Muallif Tursunqulning tipikligini uning mansabga munosabati orqali ham ochadi. U rahbarlikni xalq oldidagi mas'uliyat emas, balki shaxsiy manfaat va imtiyoz manbai sifatida tushunadi. Natijada hokimiyat vakolatidan foydalanib, o'zini qonundan ustun qo'yadi, tanqidni inkor etadi va ayblovlarni muttasil rad etishga urinadi. Sud davomida uning o'z aybini tan olmasligi, guvohlarning ko'rsatmalarini inkor qilishi va o'zini oqlashga bo'lgan urinishlari obrazning ichki mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu holat mansabparast va o'z

²⁹ Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. Xazina nashriyoti. T.:1995.50-bet



manfaatini hamma narsadan ustun qo'yuvchi rahbar tipining xarakterli belgilarini namoyon etadi. Adabiyotshunos olim Islomjon Yoqubovning: "Yozuvchining o'ziga xos mahorati qahramon ijtimoiy mavqeyini uning ma'naviy-ruhiy olami badiiy manzaralari tasvirlari orqali yoritish, ko'ngil kishisining ichki ruhiy kuchini kezi kelganda sabot bilan jilovlay olishi, vaziyat talabi bilan uni jismoniy qudratga aylantira bilishi, har bir qahramonning betakror ma'naviy-ruhiy o'lchamlari borligini ifodalashida ham namoyon bo'ladi"³⁰ deb yozganlari yuqoridagi mulohazalarga hamohang jaranglaydi. Tursunqulning tipikligi faqat ijtimoiy faoliyatida emas, oilaviy munosabatlarida ham yaqqol ko'rinadi. Asarda uning xotini sudda bergan guvohligi obrazni yangi qirradan ochadi. U erining oilaga befarqligi, farzandlari taqdiriga loqaydligi, uyda zulm va zo'ravonlik hukm surayotganini ochiq bayon qiladi. Natijada Tursunqulning jamiyat oldidagi salbiy qiyofasi oiladagi haqiqiy basharasi bilan to'ldiriladi. Muallif shu yo'l bilan mansabdagi adolatsizlik bilan maishiy zo'ravonlik o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ham badiiy asoslaydi. Shunday qilib, Tursunqul obrazi "Muxbir sudi" she'riy dramasining markaziy ijtimoiy tipi hisoblanadi. U orqali G'afur G'ulom ayrim shaxslarning emas, balki jamiyat rivojiga xavf tug'diruvchi mansabparastlik, poraxo'rlik, adolatsizlik va xalq manfaatiga bepisandlik kabi illatlarning badiiy umumlashmasini yaratadi. Obrazning ana shu tipik mohiyati dramatik konfliktning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi hamda keyingi voqealar rivojida uning individual xarakterini yanada chuqurroq ochish uchun zamin hozirlaydi.

Drama janrida xarakter, avvalo, dialog orqali namoyon bo'ladi. Qahramonning dunyoqarashi, ruhiy holati, voqelikka munosabati va ichki mohiyati uning nutqida aks etadi. G'afur G'ulomning "Muxbir sudi" she'riy dramasida ham Tursunqul obrazining individual xususiyatlari aynan sud jarayonidagi dialoglar vositasida bosqichma-bosqich ochib boriladi. Sud davomida Tursunqul o'ziga qo'yilgan ayblarni tan olish o'rniga, ularni inkor etishga urinadi:

"Hoy, sen gapir, uka Majid, bir yomonlik qildimmi?"

To'ningni yech, otingdan tush, yo pora ber, dedimmi?"

Ichgan bo'lsam ichgandirman shu ham xabar bo'ldimi,

Gazet o'lsin, shuni gap deb bosdimi?"³¹

Mazkur parcha Tursunqul xarakterining bir necha muhim qirralarini namoyon etadi. Avvalo, u o'z qilmishlariga tanqidiy baho bera olmaydi,

³⁰ Yoqubov I. Badiiy matn va estetik talqin. Fan va texnologiya. T.:2013. 14-bet

³¹ G'afur G'ulom. Asarlar. Muxbir sudi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.:1984. 296-bet



aksincha, ayblarni oddiy hol sifatida ko'rsatishga urinadi. "Ichgan bo'lsam ichgandirman" degan jumla qahramonning o'z xatti-harakatlarini tabiiy deb bilishini, mansab-mavqei unga daxlsizlik hissini berganini anglatadi. Gazetaga nisbatan aytilgan kinoyali munosabat esa uning tanqidni qabul qilmaydigan, jamoatchilik nazoratini inkor etadigan shaxs ekanini ko'rsatadi. Muallif ushbu jumlar orqali Tursunqulning nafaqat ijtimoiy tipini, balki uning o'jar, manman va mas'uliyatsiz individual xarakterini ham ochib beradi. Tursunqulning haqiqiy qiyofasi faqat uning o'z nutqi orqali emas, balki boshqa personajlarning dialoglari orqali ham to'ldiriladi. Ayniqsa, xotinining guvohligi dramatik konfliktning kulminatsion nuqtalaridan birini tashkil etadi:

"Aytmadimmi, aylanaylar, shu janjal

Biz uch burdak mushtiparning boshimizda har mahal.

"U yo'q, bu yo'q" desang darrov o'lguncha do'pposlaydir,

*Arimaydi, kundan-kunga mast bo'lib ichgani ichgan."*³²

Mazkur guvohlik Tursunqulning oiladagi qiyofasini ochib beradi. Sudgacha u faqat mansabdor shaxs sifatida baholanayotgan bo'lsa, xotinining guvohligidan so'ng uning oiladagi zo'ravonligi, mas'uliyatsizligi va maishatparastligi ham ayon bo'ladi. Dramatik nuqtai nazardan bu guvohlik konfliktni keskinlashtirib, bosh qahramonning ijtimoiy niqobi ortidagi asl insoniy mohiyatni fosh etadi. Natijada obrazning individual xarakteri yanada ishonarli va hayotiy tus oladi. Muxbirning nutqi esa Tursunqulning ijtimoiy tip sifatidagi mohiyatini umumlashtiradi:

"Tursunqul darhaqiqat boy-eshonlarning dumi,

Uloqchi ot, to'rt xotin, qaynab turadir xumi.

Qishloqning ishi bilan boshini og'ritmaydir,

Kambag'allar dardiga sira chora ko'rmaydir...

Men agar yozgan bo'lsam yolg'on gapni yozmadim,

*Ko'ra bila birovga chuqurni ham qazmadim."*³³

Bu dialogda muxbir shaxsiy adovat emas, balki ijtimoiy haqiqatni himoya qilayotganini ta'kidlaydi. Uning nutqi Tursunqulning shaxsiy kamchiliklarini emas, balki rahbar sifatidagi mas'uliyatsizligini va xalq manfaatiga zid faoliyatini fosh etishga qaratilgan. Shu sababli muxbir va Tursunqul o'rtasidagi dialog oddiy bahs emas, balki adolat va adolatsizlik, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi dramatik to'qnashuv sifatida namoyon bo'ladi. Demak, G'afur G'ulom dialogdan faqat voqeani rivojlantirish vositasi sifatida emas, balki xarakter yaratishning asosiy badiiy mexanizmi sifatida foydalanadi. Tursunqulning o'z nutqi, xotinining guvohligi va muxbirning ayblovlari birgalikda obrazning ham individual, ham tipik qirralarini ochib beradi.

³² O'sha manba

³³ O'sha manba



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Natijada qahramon o'z davrining muayyan ijtimoiy illatlarini mujassamlashtirgan tipik obraz sifatida gavdalanadi.

G'afur G'ulomning "Muxbir sudi" she'riy dramasi ijtimoiy hayotdagi muammolarni dramatik konflikt vositasida yoritgan asar sifatida alohida ahamiyatga ega. Asarda ijtimoiy tip va individual xarakter uyg'unligi drama poetikasining muhim tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Muallif Tursunqul obrazini yaratishda uni faqat muayyan shaxs sifatida emas, balki mansabparastlik, poraxo'rlik, maishatparastlik va xalq manfaatiga bepisandlik kabi illatlarning badiiy umumlashmasi darajasiga ko'taradi. Shu bilan birga, uning suddagi nutqlari, ayblarni tan olmasligi, guvohlar bilan bahslari hamda oiladagi zo'ravonligi obrazning individual xarakterini ishonarli va hayotiy ochishga xizmat qiladi.

Asarda muxbir obrazi haqiqat va adolatning badiiy ifodachisi sifatida gavdalanar ekan, uning dialoglari dramatik konflikt harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biriga aylanadi. Tursunqulning xotini va boshqa guvohlarning nutqlari esa bosh qahramonning ichki mohiyatini bosqichma-bosqich ochib, konfliktning mantiqiy rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada dialog va monologlar nafaqat syujetni rivojlantiruvchi vosita, balki xarakter yaratishning eng muhim poetik unsuri sifatida namoyon bo'ladi. Muallif yaratgan obraz va xarakterlarning badiiy jihatdan barkamolligi asarning muhim g'oyaviy jihatlarini o'quvchiga yetkazishda muhim samara beradi. "Hayotiy kechinmalar va tajribalarning hosilasi sifatida tug'ilgan g'oya ijodkor qalbiga xuddi urug' zaminga tushgan kabi tushadi. Shoirning hayotiy va badiiy tajribasi, iste'dodi bu urug' uchun shart-sharoit va muhit bo'lib xizmat qiladi"³⁴. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, "Muxbir sudi" she'riy dramasi tipiklashtirish va individuallashtirish tamoyillari o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilgan. Ana shu uyg'unlik obrazlarning badiiy ishonarliligini ta'minlab, asarning g'oyaviy ta'sir kuchini oshiradi. G'afur G'ulom dramatik konflikt xarakterlarni sinovdan o'tkazuvchi estetik vositaga aylantirib, ijtimoiy haqiqatni obrazlar ruhiyati va ularning o'zaro munosabatlari orqali ochishga erishgan. Shu jihatdan "Muxbir sudi" she'riy dramasi o'zbek dramaturgiyasida ijtimoiy tip va individual xarakter birligini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan muhim asarlardan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunolsikka kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.:2004.

³⁴ G'aniyev I. Fitrat dramalari poetikasi. Fan nashriyoti. T.:2005.40-bet.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

2. Sultonova M. Portret yaratish san'ati. Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi to'plami. O'zbekiston SSR Fan nashriyoti. T.: 1984
3. Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. Xazina nashriyoti. T.: 1995.
4. Yoqubov I. Badiiy matn va estetik talqin. Fan va texnologiya. T.: 2013
5. G'afur G'ulom. Asarlar. Muxbir sudi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 1984
6. G'aniyev I. Fitrat dramalari poetikasi. Fan nashriyoti. T.: 2005

